



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA INSON FAZILATLARINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QIYOSIY-SEMANTIK TAHLILI

Jabbarova Anora Javliyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti, (PhD), professor

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida inson fazilatlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning qiyosiy-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ikki til materiallari asosida insonning ijobiy va salbiy fazilatlarini ifodalovchi frazeologizmlarning semantik tuzilishi, ularning ma’no guruhlarini hamda til tizimidagi o‘rni o‘rganiladi. Shuningdek, frazeologik birliklarda aks etgan baholash, emotsionallik va ekspressivlik kabi semantik komponentlar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning umumiy va milliy-madaniy xususiyatlari aniqlanadi hamda inson fazilatlarini ifodalashda qo‘llaniladigan frazeologik vositalarning o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Mazkur tadqiqot qiyosiy tilshunoslik, frazeologiya va lingvokulturologiya sohalaridagi ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologik birliklar, inson fazilatlarini, qiyosiy tahlil, semantik tahlil, emotsionallik, ekspressivlik, lingvokulturologiya, ingliz tili, o‘zbek tili.

СРАВНИТЕЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ ЧЕЛОВЕЧЕСКИЕ КАЧЕСТВА, В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Жаббарова Анора Жавлиевна

Джизакский государственный педагогический университет, (PhD), профессор

Аннотация

В данной статье анализируются сопоставительно-семантические особенности фразеологических единиц, выражающих человеческие качества в английском и узбекском языках. В ходе исследования на материале двух языков рассматриваются семантическая структура фразеологизмов, выражающих положительные и отрицательные качества человека, их смысловые группы и роль в языковой системе. Также проводится сопоставительный анализ семантических компонентов, отражённых во фразеологических единицах, таких как оценочность, эмоциональность и экспрессивность. В результате исследования выявляются общие и национально-культурные особенности фразеологических единиц английского и узбекского языков, а также раскрываются специфические особенности фразеологических средств, используемых для выражения человеческих качеств. Результаты исследования имеют важное теоретическое и практическое значение для дальнейших научных исследований в области сопоставительного языкознания, фразеологии и лингвокультурологии.

Ключевые слова: фразеология, фразеологические единицы, человеческие качества, сопоставительный анализ, семантический анализ, эмоциональность, экспрессивность, лингвокультурология, английский язык, узбекский язык.

A COMPARATIVE SEMANTIC ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS EXPRESSING HUMAN QUALITIES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Jabbarova Anora Javliyevna

Jizzakh State Pedagogical University, (PhD), Professor

Abstract

This article analyzes the comparative-semantic features of phraseological units expressing human qualities in the English and Uzbek languages. The study examines the semantic structure of phraseological units expressing both positive and negative human qualities based on the materials of the two languages, as well as their semantic groups and their role in the language system. In addition, semantic components such as evaluation, emotionality, and expressiveness reflected in phraseological units are comparatively analyzed. The results of the study reveal the common and national-cultural features of phraseological units in English and Uzbek and highlight the specific characteristics of phraseological means used to express human qualities. The findings of the research have significant theoretical and practical importance for studies in comparative linguistics, phraseology, and linguoculturology.

Keywords: phraseology, phraseological units, human qualities, comparative analysis, semantic analysis, emotionality, expressiveness, linguoculturology, English language, Uzbek language.

Insonning ijobiy fazilatlarini qatorida o'zini tuta bilish, jasorat va qo'rqmaslik alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu fazilatlar hozirgi o'zbek tilida, ayniqsa, obrazli va hissiy jihatdan boy frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Jumladan, o'limga tik qaramoq, ko'ksini qalqon qilmoq, o'zini qo'lga olmoq, tap tortmaslik, tishini tishiga qo'yimoq, jon olib jon bermoq, yuragida o'ti bor, ko'zida o't yonmoq, jonini jabborga bermoq kabi iboralar mazkur semantik maydonning asosiy birliklarini tashkil etadi. Bu frazeologik birliklar leksik va grammatik xususiyatlariga ko'ra og'zaki nutqda ham, badiiy adabiyotda ham faol qo'llanadi.

Mazkur guruhdagi frazeologik birliklarning aksariyati fe'l frazeologik birliklar bo'lib, ular baholash funksiyasini bajarish bilan birga, harakatni ham ifodalaydi. Ya'ni, bunday birliklar fe'lga xos bo'lgan zamon va shaxs kategoriyalarini saqlagan holda, insonning xatti-harakati va unga berilgan ijobiy bahoni birgalikda aks ettiradi. Masalan, o'limga tik qaramoq frazeologizmi predikat sifatida qo'llanib, nafaqat harakatni, balki insonning jasorat va qo'rqmaslik kabi sifatlarini ham ifodalaydi. Ushbu ibora so'zma-so'z ma'noda "o'limning ko'ziga qarash"ni anglatib, qo'rqmaslik va jasoratning eng yuqori darajasini bildiradi. Masalan: Necha bor o'limga tik qarab birga qon kechgan, xuddi aka-ukadek qardondashib ketgan bir do'sti haqida hikoya qilib berdi (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yomg'irli o'lka").

Ingliz tilida mazkur semantik maydonni ifodalovchi shunga yaqin frazeologik birliklar mavjud. Masalan, to face death, to stare death in the face iboralar insonning qo'rqmasligi va jasoratini bildiradi. W. Shakespeare tragediyalarida qahramonlar "I dare do all that may become a man" (Macbeth) kabi ifodalar orqali jasorat va qat'iyat timsoli sifatida tasvirlanadi. Ushbu birliklar o'zbek tilidagi o'limga tik qaramoq iborasi bilan semantik jihatdan uyg'unlashadi.

Ko'ksini qalqon qilmoq frazeologik birligi ham insonning jasorati va fidoyiligini ifodalovchi ijobiy birliklardan biridir. Bu iborada obrazli motivatsiya yaqqol namoyon bo'lib, insonning o'zini boshqalar yo'lida himoyaga qo'yishi ifodalanadi. Ingliz adabiyotida bunday ma'no to shield someone with one's body yoki to stand as a shield kabi iboralar orqali ifodalanadi. Masalan, V. Woolf asarlarida qahramonning ichki jasorati ko'pincha tashqi harakat orqali emas, balki ruhiy matonat orqali ochib beriladi, bu esa o'zbek tilidagi tashqi-obrazli ifoda bilan qiziqarli qiyosni yuzaga keltiradi.

Jonini jabborga bermoq frazeologik birligi insonning bor kuchi bilan harakat qilishi, fidoyilik va g'ayratni ifodalaydi. Ushbu birlik butun kombinatsiyaning obrazli qayta talqini natijasida kuchli baholovchi ma'noga ega bo'ladi va gapda predikat vazifasini bajaradi: Axir, ularni yo'lga qo'yish uchun qanchalar qon yutgan, qanchalar joningni jabborga bergan eding

(Ulug'bek Hamdam, "Sabo va Samandar"). Ingliz tilida bunga qiyos sifatida *to give one's all, to stake one's life* iboralarini keltirish mumkin.

Jasorat va qo'rqmaslikni ifodalovchi yana bir muhim frazeologik birlik ko'zida o't yonmoq bo'lib, u yuragida o'ti bor iborasi bilan semantik jihatdan yaqin. Ushbu birliklar insonni faqat ijobiy xarakterlash uchun ishlatiladi:

Ajoyib yigit edi, yuragida o'ti bor yigit edi (X. Do'stmuhammad, "Qichqiriq"). Ingliz adabiyotida J. Austen qahramonlarining "a spirited young man" tarzida tasvirlanishi mazkur ma'noga yaqin keladi.

Shuningdek, o'zbek tilida insonning o'zini tuta bilish fazilatini ifodalovchi frazeologik birliklar ham mavjud. Masalan, o'zini qo'lga olmoq frazeologizmi predikat sifatida qo'llanib, "o'zini bosish, hissiyotlarini nazorat qilish" ma'nosini bildiradi. Bu birlikda hissiy baholash unsuri nisbatan sust bo'lsa-da, shaxsning ijobiy fazilatini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi:

— Shuning uchun ham majlisga solayapmanda! — dedi Odil aka o'zini qo'lga olib (Ulug'bek Hamdam, "Muvozanat").

Xuddi shuningdek, o'zini bosmoq frazeologizmi ham "hovliqmaslik, o'zini tiya bilish" ma'nosini anglatadi. Ingliz tilida bu holat *to keep oneself under control, to compose oneself* iboralarini orqali ifodalanadi. Masalan, J. Austen romanlarida qahramonlarning hissiyotini tiyib turishi ijtimoiy madaniyat belgisi sifatida talqin qilinadi.

Umuman olganda, ushbu semantik maydon frazeologik birliklari asosan inson xarakteri va axloqiy fazilatlarini bilan bog'liq. Qayta semantik talqin natijasida hosil bo'lgan fe'l frazeologik birliklar insonning ijobiy sifatlarini aks ettiruvchi kuchli emosional-baholovchi ma'noga ega bo'ladi. Tuzilishiga ko'ra, bu birliklar ko'pincha uch komponentli model asosida shakllanadi: ko'zida + o't + yonmoq, ko'ksini + qalqon + qilmoq. Ikki komponentli ot + fe'l modellar esa nisbatan kam uchraydi (o'zini bosmoq, hushini yig'moq).

Shu tariqa, qiyosiy tahlil o'zbek va ingliz tillarida jasorat, qo'rqmaslik va o'zini tuta bilish fazilatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar umumiy kognitiv asosga ega ekanini, biroq ularning obrazli ifodasi milliy madaniyat va adabiy an'analar bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Zamonaviy o'zbek tilida insonning halolligi, Vatanga, g'oyaga, kasbga yoki boshqa insonlarga sadoqati kabi yuksak axloqiy fazilatlarini frazeologik-semantik birliklar orqali obrazli va hissiy tarzda ifodalanadi. Ushbu guruhga mansub jonini tikmoq, jonini fido qilmoq, jonini ayamasklik, ko'ngli toza, dili toza, ochiq ko'ngil kabi frazeologik birliklar insonning ijobiy baholash qadriyatlariga asoslangan fazilatlarini tavsiflaydi.

Jonini ayamasklik frazeologizmi fidoyilik va sadoqat ma'nolarini kuchli emosional rang bilan ifodalaydi. Ushbu birlik insonning boshqa shaxsga yoki muayyan g'oyaga nisbatan cheksiz sadoqatini bildiradi: Darhaqiqat, uning gap-so'zidan juvon eri uchun jonini-jahonini ham ayamaydigan ko'rinadi (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yomg'irli o'lka"). Ushbu misolda jahonini komponentining qo'shilishi frazeologik birlikning obrazini kuchaytirib, ijobiy hissiy bahoni yanada oshiradi. Shuningdek, fe'l komponentining almashinuvi natijasida mazkur birlik turli variantlarda namoyon bo'ladi: Tamara xola shu Ulfat akaga joni-jahonini qo'ygan edi (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yolg'izlik qurboni").

Ingliz tilida mazkur ma'no *to give one's life, to devote oneself, to stake one's life* kabi frazeologik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, W. Shakespeare tragediyalarida qahramonlarning "I would give my life for thee" kabi ifodalari fidoyilik va sadoqatning eng yuqori darajasini anglatadi. Ushbu birliklar o'zbek tilidagi jonini fido qilmoq frazeologizmi bilan semantik jihatdan mushtarakdir.

Jonini tikmoq frazeologizmi insonning muayyan ishga yoki ezgu maqsadga sadoqatini oxirigacha ifodalab, yuqori ijobiy fazilatni tavsiflaydi:

Men jonimni yaxshilik yo‘liga tikkanman (X. Xushvaqov, “Kattaqo‘rg‘on tongi”). Ingliz adabiyotida J. Austen asarlarida qahramonlarning jamiyat yoki oila manfaatlari yo‘lida o‘z manfaatidan voz kechishi to devote oneself entirely tarzida tasvirlanadi.

Jonini fido qilmoq frazeologik birligi fidoyilik va sadoqatni insonning muhim axloqiy fazilati sifatida ochib beradi: Agar bilsang, biz bir-birimizga jonimizni fido qilishimiz kerak (Zulfiya Qurolboy qizi, “Yomg‘irli o‘lka”). Nutqda ushbu birlik elliptik shaklda ham qo‘llanib, kuchli hissiy ifodaga ega bo‘ladi:

Biror kimsa shu tobda jonini so‘rasa ham berishga tayyor edi (Ulug‘bek Hamdam, “Sabo va Samandar”).

O‘zbek tilida halollik va axloqiy poklikni ifodalovchi frazeologik birliklar ham keng tarqalgan. Bular qatoriga ko‘ngli toza, dili toza, ochiq ko‘ngil, diyonati pok, vujudi pok, yuragi toza, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan kabi birliklar kiradi. Ko‘ngli toza frazeologizmi insonning samimiyligi va rostgo‘yiligini ifodalab, tarkibiy jihatdan ot + sifat modeli asosida tuzilgan. Ushbu birlik nutqda dili toza, yuragi toza variantlari bilan ishlatiladi va badiiy asarlarda qahramonning ijobiy qiyofasini yaratishga xizmat qiladi.

Diyonati pok va vujudi pok frazeologik birliklari insonning halolligini kuchli baholovchi ma‘no bilan ifodalaydi. Ushbu birliklar faqat ijobiy xarakteristika berish uchun qo‘llanadi: Ming shukurki, o‘g‘li ham, kampiri ham halol yashadi, imoni salomat, diyonati pok ketdi (Ulug‘bek Hamdam, “Muvozanat”).

Nozimaxonning vujudi pok tarzida tasvirlanishi (T. Jo‘raev, “Bozor dunyo”) insonning axloqiy barkamolligini ifodalashga xizmat qiladi.

Ingliz tilida halollik va axloqiy poklik pure-hearted, honest to the core, of clean conscience kabi birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, V. Woolf asarlarida qahramonning ichki axloqiy pokligi bevosita tashqi tasvirlar orqali emas, balki ruhiy kechinmalar orqali ochib beriladi, bu esa o‘zbek tilidagi obrazli frazeologik ifodalar bilan qiziqarli qiyosni yuzaga keltiradi.

Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan frazeologizmi so‘zlashuv uslubiga xos bo‘lib, zararsizlik va beg‘uborlikni ifodalaydi. Ushbu birlik baholash funksiyasini bajarib, insonning ijobiy axloqiy fazilatlarini kulgili-obrazli tarzda yetkazadi. Ingliz tilida bunga qiyos sifatida wouldn’t hurt a fly iborasini keltirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy o‘zbek tilida halollik, sadoqat va fidoyilik kabi ijobiy fazilatlarni ifodalovchi frazeologik birliklar keng qo‘llanadi. Badiiy adabiyot tilida ular personajlarning axloqiy qiyofasini, fe‘l-atvori va ijtimoiy mavqeini tavsiflashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tarkibiy va grammatik jihatdan mazkur frazeologik birliklar asosan sifat frazeologik birliklar sifatida tasniflanadi, ularda yetakchi komponent sifat vazifasini bajaradi.

Zamonaviy o‘zbek tilida aqlli, oqilona, tezkor va yetuk tafakkur egasi bo‘lgan insonni obrazli tavsiflash uchun ko‘plab frazeologik birliklar mavjud. Bunday birliklar insonning nafaqat intellektual salohiyatini, balki uning axloqiy, estetik va kommunikativ fazilatlarini ham baholovchi ma‘noda ifodalaydi. Jumladan, aqli yetadi, aqlotun miya, mag‘zini chaqmoq, yetti o‘lchab bir kesmoq, aqli butun, didi baland, yuragi keng, og‘zidan bol tomadi, yigitning guli, musichadek beozor, shirin so‘z, tili shirin, yigitning sultoni, oq ko‘ngil, didi o‘tkir, bir so‘zli, kesib gapiradigan, es-hushli, farishtadek pok kabi frazeologik birliklar ushbu semantik maydonning asosini tashkil etadi.

Aqli yetadi frazeologik birligi insonning aqliy yetukligi va tezkor fikrlash qobiliyatini ifodalaydi. Tuzilishiga ko‘ra u ot + fe‘l modeli asosida qurilgan bo‘lib, funksional jihatdan sifat ma‘nosini anglatadi. Nutqda ushbu birlik aqli butun varianti bilan ham ishlatiladi va shaxsning ijobiy xarakteristikasini bildiradi:

Abdullo bilan materiallar olishayotganida bir-ikki razm solsa, ancha narsaga aqli yetadigan (Hamid Elxon, “Maynagul”).

Ingliz tilida mazkur ma'no sharp-minded, quick-witted, of sound mind kabi frazeologik va leksik birliklar orqali ifodalanadi. Masalan, W. Shakespeare asarlarida qahramonlarning "a man of sound judgment" tarzida tasvirlanishi o'zbek tilidagi aqli butun iborasiga semantik jihatdan mos keladi.

Yuragi keng frazeologizmi keng fikrlaydigan, saxiy va oqilona insonni ifodalaydi. Ushbu birlikning yuragi daryo yoki yuragini keng tutmoq kabi variantlari mavjud bo'lib, ular insonning ruhiy kengligi va bag'rikengligini kuchli obraz orqali yetkazadi: Yuragi keng yoshlar (Ulug'bek Hamdam, "Sabo va Samandar").

Ingliz adabiyotida bunday ma'no big-hearted yoki large-hearted birliklari orqali ifodalanadi. Jane Austen romanlarida qahramonlarning "generous of spirit" sifatida tasvirlanishi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Didi baland va didi o'tkir frazeologik birliklari insonning estetik didi va intellektual sezgirligini ifodalaydi. Ushbu birliklar ot + sifat modeli asosida tuzilgan bo'lib, badiiy adabiyotda faqat ijobiy baholash ma'nosida qo'llanadi:

Kiyinishidan nozik tabiatligi, baland didligi ko'rinib turardi (Asad Dilmurod, "Rang va Mehvar"). Ingliz tilida bu ma'no a refined taste, keen aesthetic sense iboralari orqali ifodalanadi.

Oq ko'ngil va ochiq ko'ngil frazeologizmlari insonning halolligi, samimiyligi va beg'uborligini bildiradi. Ushbu birliklar badiiy asarlarda personajning ijobiy qiyofasini yaratishda faol ishtirok etadi: Nilufar bu oqko'ngil, mehribon yigitdan astoydil minnatdor bo'lib ketdi (Ulug'bek Hamdam, "Sabo va Samandar").

Ingliz tilida mazkur ma'no open-hearted, pure-hearted birliklari orqali ifodalanadi. V. Woolf asarlarida qahramonlarning ichki pokligi ko'pincha ruhiy holatlar orqali ochib beriladi, bu esa o'zbek tilidagi obrazli frazeologik ifodalar bilan qiyoslash imkonini beradi.

Aqllilik va ehtiyotkorlikni ifodalovchi yetti o'lchab bir kesmoq frazeologizmi o'zbek tilida keng tarqalgan bo'lib, "har qanday ishni puxta o'ylab bajarish" ma'nosini anglatadi: Siz ziyraksiz, aqllilisiz, yetti o'lchab bir qirqasiz (Asad Dilmurod, "Rang va Mehvar"). Ingliz tilida bu ma'no measure twice, cut once maqoli orqali ifodalanadi, bu esa ikki til o'rtasidagi paremiologik yaqinlikni ko'rsatadi.

Arqonni uzun tashlamoq frazeologik birligi insonning bosiqligi va sabr-toqatini bildiradi. Ushbu birlik yuragini keng tutmoq iborasi bilan semantik jihatdan yaqin bo'lib, oqilona xulq-atvorni ifodalaydi. Ingliz tilida mazkur holat to take the long view yoki to be patient and prudent birliklari orqali ifodalanadi.

Shuningdek, bir so'zli va kesib gapiradigan frazeologik birliklari insonning qat'iyati va aniqligini bildiradi: Bir so'zli, uddaburon, kesib gapiradigan xotin edi (B. Bunyod, "Opa-singil"). Ingliz tilida bu xususiyat a person of few words yoki decisive speaker iboralari orqali ifodalanadi.

Tana qismlari (somatizmlar) asosida tuzilgan frazeologik birliklar aqllilik va tezkorlikni ifodalashda muhim o'rin tutadi. O'zbek tilida miya, yurak, ko'z, qo'l kabi somatik komponentlar faol bo'lsa, ingliz tilida ham mind, heart, eye, hand kabi birliklar metaforik asosda ishlatiladi. Masalan, afltun miya iborasi ingliz tilidagi a brilliant mind bilan semantik jihatdan mos keladi.

Musichadek beozor frazeologizmi insonning zararsizligi va beg'uborligini ifodalaydi: Musichadek beozor, Ulfat akaning qadr topmagan qadrini... (Zulfiya Qurolboy qizi, "Yolg'izlik qurboni"). Ingliz tilida bunga qiyos sifatida as gentle as a dove yoki wouldn't hurt a fly iboralari keltirish mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, aqli va tezkor insonni tavsiflovchi frazeologik birliklar o'zbek tilida keng semantik va stilistik imkoniyatlarga ega. Ular metafora va somatizm asosida shakllanib, shaxsning intellektual va axloqiy fazilatlarini baholovchi kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi. O'zbek va ingliz tillari qiyosida olib borilgan tahlil ushbu frazeologik birliklarning umumiy kognitiv asosga ega ekanini, biroq ularning obrazli ifodasi milliy madaniyat va badiiy tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Shuningdek, insonning ijobiy fazilatlarini

ifodalovchi frazeologik birliklar zamonaviy o'zbek tilida alohida frazeologik-semantik maydonni tashkil etadi. Ushbu maydonda samimiylik, jasorat, halollik, sadoqat, fidoyilik va aql kabi ijobiy xususiyatlar markaziy o'rin egallaydi. Qiyosiy tahlil ingliz va o'zbek tillarida bu birliklar umumiy kognitiv asosga ega ekanini, biroq ularning obraz manbalari milliy madaniyat va mentalitet bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
2. Cowie A.P. *Phraseology: Theory, Analysis and Applications*. – Oxford: Oxford University Press, 1998.
3. Fernando C. *Idioms and Idiomaticity*. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
4. Gibbs R.W. *The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language and Understanding*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1994.
5. Rahmatullayev Sh. *O'zbek tilining frazeologik lug'ati*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Rahmatullayev Sh. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. – Toshkent: Universitet, 2006.
7. Yo'ldoshev B. *O'zbek frazeologiyasi asoslari*. – Toshkent: Fan, 1998.
8. Mahmudov N. *Til va madaniyat*. – Toshkent: Fan, 2013.
9. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik*. – Toshkent: Fan, 2006.
10. Teliya V.N. *Фразеология в контексте культуры*. – Москва: Языки русской культуры, 1999.
11. Dobrovol'skij D., Piirainen E. *Figurative Language: Cross-Cultural and Cross-Linguistic Perspectives*. – Amsterdam: Elsevier, 2005.
12. Gläser R. *Phraseology in English Linguistics*. – Tübingen: Niemeyer, 1988.